
Har bir ishning tahlili bo'lgani yaxshi

2019 yil 8 yanvardagi PQ - 4102 - sonli "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori asosida Qo'shtepa tumani prokurori A.Xudoyberganov rahbarligida 2-sektorda 2024 yil holatiga amalga oshirilgan hamda joriy yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan yil sarhisobi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Tuman madaniyat markazida o'tkazilgan yig'ilishda 2-sektor hududidagi mahalla yettiligi vakillari, hududdagi maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbarlari hamda mas'ul idoralarning rahbarlari ishtirok etishdi.

Tahliliy va tanqidiy o'tkazilgan yig'ilishda 2-sektorda 2024 yil holatiga amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinib, joriy yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

2025-02-01 12:36:01